

**MAXDUMI A'ZAMNING NAQSHBANDIYA TA'RIQATIGA
QO'SHGAN HISSASI**

Bo'riboyev Abdulvohid

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Narimonov Qahramon

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, Ph.D

Annotatsiya: Ushbu maqola Movarounnahr zaminida yetishib chiqqan buyuk mutasavvif, naqshbandiya tariqatining yirik nazariyotchisi Sayyid Ahmad ibn Mavlono Jaloliddin Kosoniy – Maxdumi A'zamning hayoti, ilmiy-ma'naviy merosi va ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bag'ishlangan. Maqolada allomaning nasabnomasi, uning shariat va tariqat birligi borasidagi qarashlari, shuningdek, naqshbandiya ta'limotini tizimlashtirishga qo'shgan hissasi tahlil qilingan. Maxdumi A'zamning o'z davri hukmdorlari bilan o'zaro munosabatlari, uning ma'naviy rahbarlik maqomi va jamiyat hayotidagi faol roli yoritilgan. Shuningdek, alloma tomonidan asos solingan Dahbed majmuasi va uning bugungi kundagi ma'naviy ahamiyati xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Maxdumi A'zam, Sayyid Ahmad Kosoniy, Naqshbandiya, tasavvuf, shariat, tariqat, Dahbed, Movarounnahr, ma'naviyat, silsila, mavlono Muhammad Qozi, ma'rifat.

Abstract: This article is dedicated to the life, scientific-spiritual heritage, and socio-political activities of Sayyid Ahmad ibn Mawlana Jalaluddin Kosoniy, widely known as Makhdumi Azam, a prominent mystic and leading theorist of the Naqshbandiya Sufi order who emerged from Mawarannahr. The paper analyzes the scholar's lineage, his views on the unity of Sharia and Tariqa, and his significant contribution to systematizing the Naqshbandiya teachings. It highlights Makhdumi Azam's relationships with the rulers of his

time, his status as a spiritual mentor, and his active role in social life. Furthermore, the article discusses the Dahbed complex founded by him and its spiritual significance in the present day.

Key words: Makhdumi Azam, Sayyid Ahmad Kosoniy, Naqshbandiya, Sufism, Sharia, Tariqa, Dahbed, Mawarannahr, spirituality, silsila, Mawlana Muhammad Qozi, enlightenment.

Movarounnahr jahon sivilizatsiyasiga, jumladan ilm-fan va ma'naviyat, falsafa, din, san'at taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan buyuk siymolar, daho allomalarni yetishtirib bergan madaniy makon hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy ma'naviyatni qayta tiklash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda Maxdumi A'zam kabi buyuk allomalar merosini o'rganish va targ'ib qilish muhim vazifalardan biridir. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir"¹, bu ma'noda Maxdumi A'zam ta'limoti bizning milliy ma'naviy qadriyatlarimizning muhim qismini tashkil etadi.

Maxdumi A'zam naqshbandiya tariqatining buyuk nazariyotchisi va davomchisi, axloqshunos mutafakkir, naqshbandiya tariqati ta'limotini bir tizimga solgan, silsila va amaliyoti, shuningdek, tasavvuf ta'limotining nazariy muammolari bo'yicha asarlar yaratgan mutasavvif, naqshbandiylilikning ijtimoiy-siyosiy ta'siri ortishi, kengayishi va tarqalishida sa'y-harakat va qat'iy irodalik ko'rsatgan ulug' zot, orifiy ilmlar sohibidir.

Maxdumi A'zam 1461 yili (ba'zi manbalarda 1463-1464) Farg'ona vodiysining qadimiy shahri Kosonda tug'ilgan. Uning to'liq ismi Sayyid

¹ [Mirziyoyev](#) Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari, 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2021. – B. 198.

Ahmad ibn Mavlono Jaloliddin Xojagi Kosoniy Dahbediydir. “Sayyid” unvoni uning payg’ambarimiz Muhammad (s.a.v.) avlodidan ekanligiga ishora qiladi².

Maxdumi A’zamning ota-onalari hazrati Muhammad payg’ambarimiz (s.a.v) avlodlaridan bo’lib, bu borada ko’plab tarixiy manbalar, qabr toshlari va tarixiy obidalarining peshtoqlarida ma’lumotlar mavjud. Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, nasabnoma va shajara masalasiga to’xtaladigan bo’lsak, O’rta Osiyoda shajaralari eng ko’p qayd etilgan va yozilgan tabaqa Sayyid Ahmad Kosoniy avlodidir. Jumladan, “Ravoyihul quds”, “Silsilat us-siddiqiyn va anis ul-oshiqiyn”, “Jome’ ul-maqomot”, “Tazkirai azizon”, Faxriddin Ali as-Safiyning “Rashahot ayn-ul-hayot”, Mavlono Muhammad Qozining “Silsilat ul-orifin”, Xoja Abulbaqo ibn Xoja Bahouddin (Hazrat Maxdumi A’zamning nabirasi) qalamiga mansub “Jome’ ul-maqomot”, Nosiriddin Husayn al-Buxoriyning “Tuhfat uz-zoi’rin” asarlarida va ko’plab boshqa tazkiralarda Hazrat Maxdumi A’zam Kosoniyning 22 avloddan so’ng Payg’ambarimizga avlod bo’lishlari zikr etilib, nasabnoma – shajaralari to’liq keltirilgan³.

Hazrat Maxdumi A’zamning otalari Mavlono Jaloliddin o’z davrining yetuk olimlaridan bo’lgani uchun ham yosh Sayid Ahmad ilm o’rganishga juda erta kirishadi. Maktabda ilm o’rganish bilan birga otasining yonida dehqonchilik bilan ham shug’ullanadi. Bu haqida temuriy tarixchilaridan bo’lgan shahzoda Muhammad Doro Shukuh (Bobur Mirzoning avlodlaridan) o’zining “Safinat ul-avliyo” nomli mashhur kitobida Hazrati Maxdumi A’zamning o’zlari aytgan ushbu so’zlarni keltirgan: “Yoshligimda padari buzrukvorim meni dehqonchilik ishlariga jalb qilar edilar. Lekin menda ilm olishga ishtiyoq katta edi va Qur’oni karimni qiroat qilishga moyillik kuchli edi. Bir kuni tushimda bir kishi menga Qur’on kitobini tuhfa qildi.

² Turaev B.O., Artikov M.A., Nasrullaeva N. Z. Mahdumi Azam Kasani. – Tashkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – P. 3.

³ Komilxon Kattaev. Maxdumi A’zam va Dahbed tarixi. – Samarqand: Sug’diyona, 1994. – B. 8.

Uyg'onib qarasam, yonimda Qur'on turganini ko'rdim va bu kitob menga Allohning inoyati bilan yetkazilgani ma'lum bo'ldi. So'ngra Qur'onni qiroatiga mashg'ul bo'ldim"⁴.

Yosh Xoja Sayid Ahmad dastlabki bilimlarini kasonlik ustoz Mavlono Mir Sayid Alidan oladi. Sarf va nahv (tilning morfologiya va sintaksis bo'limlari) ilmlarini qunt bilan o'rganganidan keyin o'zi mustaqil ravishda davom ettiradi. Aynan shu davrda Sayid Ahmad tasavvuf ilmiga qiziqib, bu sohadagi barcha asarlarni mustaqil ravishda o'qib o'rganadi. Xoja Sayid Ahmad bu sohadagi bilimini oshirish uchun ustoz Mir Sayid Alining maslahati bilan Hazrat Xoja Ahror Valiyning Toshkentda yashayotgan eng yaqin shogirdi va o'rinbosari bo'lgan Mavlono Muhammad Qozi huzuriga borib, u zotga shogird tushadi⁵. Ana shu tariqa Sayid Ahmad Kosoniyning naqshbandiya sohasidagi faoliyati boshlangan. Shu tariqa Sayid Ahmad uzoq yillar Mavlono Muhammad Qozining ta'limini olib voyaga yetgan. Maxdumi A'zam unvonini ham Sayyid Axmadga shu ustoz tavsiya ettan. Maxdumi A'zam 1510 yilgacha Mavlono Muhammad Qozining huzurida bo'lgan. Muxammad Qozi 1515 yili vafot etgan⁶.

Maxdumi A'zam tasavvuf bo'yicha ustoz Mavlono Muhammad Qozidan olgan ta'limlarini amaliyot bilan bog'langan ilgari xojagonlar mozorini ziyorat qilish maqsadida Buxoraga borganlar va u joyda hazrati Bahouddin Nakshband, hazrati Abdulxoliq G'ijduvoniyning va boshqa naqshbandiya xojagon pirlarining qabrlarini ziyorat qilganlar. Shu bilimlari asosida "To'rt kalima haqida risola":, ya'ni, "Risolayi chaxor kalima" asarini yozgan.

XVI asrning boshiga kelib Sayid Ahmad Kosoniy tariqat ahlining yetuk mutafakkiri, sohibi karomat darajasiga yetadi. Hazrat Kosoniyning sohibi karomat bo'lganliklari haqida xalq o'rtasida turli rivoyatlar shu kungacha saqlanib qolgan. Imom Kosoniy: "Inson hukmiga in'om etilgan olamni

⁴ Qarang: Nuriddinov A. Maxdumi A'zam Kosoniy. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 9.

⁵ Turaev B.O. Maxdumi A'zam. – Toshkent: IBXMN, 2020. – B. 9.

⁶ O'sha manba. – B. 10.

yashnatish lozim” deya uqtirib o‘tadi. Bu kabi g‘oyalar insonning yer yuzasidagi tartib va osoyishtalikka shaxsan mas’ul ekanligini alohida ta’kidlovchi, uning izmiga berilgan olamni yashnatishga, gullatishga, takomillashtirishga undovchi, har bir musulmonni faollikka chaqiruvchi da’vat edi.

Sayid Ahmad Xojagiy Kosoniy yuqoridagi kabi ilg‘or g‘oyalari, tariqat ilmidagi favqulodda iste’dod va qobiliyatlari tufayli o‘z davrining zabardast ulamolari tomonidan e’tirof etilib, “Maxdumi A’zam” unvoniga musharraf bo‘ladi. “Maxdum” so‘zining lug‘aviy ma’nosi – unga xizmat qilinuvchi, yuqori martabali kishi bo‘lib, “A’zam” so‘zi – buyuk, ulug‘ ma’nolarini ifodalaydi.

Samarqand hukmdori Jonibek Sulton Shayboniy Hazrat Maxdumi A’zam Kosoniyning kamoloti va shuhratidan xabardor bo‘lgach, u zotdan Samarqandga ko‘chib kelishini iltimos qiladi⁷⁷ va Hazrat Kosoniy XVI asrning 20-yillarida Samarqandga ko‘chib keladi. Jonibek Sultonning farmoniga binoan Maxdumi A’zamga Samarqanddan shimolroqda joylashgan Miyonqol mavzesidan joy ajratib beriladi. Rivoyatlarga ko‘ra, Maxdumi A’zam Kosoniy bu joyni obod qilib, o‘nta tol daraxtini bir-biriga yaqin o‘tqazgan. Mavzesining nomi ana shu munosabat bilan Dahbed (o‘nta tol) deb atalgan ekan.

Hazrat Maxdumi A’zam umrining qolgan qismini ijodiy faoliyat va shogirdlar tarbiyasi bilan o‘tkazadi. Buyuk alloma ilmiy faoliyati bilan bir qatorda Dahbed qishlog‘ida 90 tanob (22,5 gektar) yerda katta bog‘ yaratib, dunyoning turli go‘shalaridan keltirilgan o‘simliklarni parvarishlab, yangi meva navlarini yaratgan.

Shariat va tariqat ilmiga oid, axloq va ilohiyot masalalariga doir o‘ttizdan ortiq diniy, falsafiy, axloqiy, ilmiy va adabiy risolalarni yozib qoldirgan. Jumladan, “Risolai samo‘iya”, “Risolai fathnoma”, “Risolai chahor kalima”,

⁷⁷ Valixo‘jaev B. Maxdumi A’zam Dahbediy // Valixo‘jaev B., Zohidiy A. Maxdumi A’zam (maqolalar to‘plami). – Toshkent: Navruz, 1993.

“Risolai me’rojul oshiqin”, “Risolai Gul va Navro‘z”, “Risolai silsilai Xojagon” “Risolai asrorun-nikoh”, “Risolai sharhi bayot”, “Odob us-siddiqin” va boshqa asarlar Maxdumi A’zam Kosoniy qalamiga mansub bo‘lib, ularning nodir nusxalari O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanmokda. Ana shu asarlarning bir nechitasi sharqshunos olimlar tomonidan nashrga tayyorlangan.

Markaziy Osiyoda, jumladan Movarounnahrda katta nufuzga ega bo‘lgan shayboniy hukmdorlardan, Ubaydiy taxallusi bilan turli janrlarda o‘zbek, fors-tojik, arab tillarida manzumalar bitgan Ubaydulloxon Hazrat Maxdumi A’zamning sodiq muridlaridan va xolis muxlislaridan biri bo‘lgan.

Ayni vaqtda Ubaydulloxon o‘z muridlik burchini oqlab, piri buzrukvori Maxdumi A’zamni ulug‘lab, u Hazratning 27 ta risolasini alohida bir devon tarzida ko‘chirtiradi. Shuningdek, temuriylardan Zahiriddin Muhammad Bobur ham Hazrat Maxdumi A’zam Kosoniyini o‘zining ma’naviy uztozi deb biladi.

Bobur Mirzo Xoja Ubaydulloh Ahorning “Risolai volidiya” asarini o‘zbek tiliga o‘girgach, unga o‘zining ruboiylarini ham qo‘shib, Maxdumi A’zamga yuboradi. Maxdumi A’zam bu borada alohida “Risolai Boburiya” degan asar yozadilar⁸. Bundan tashqari shayboniy hukmdorlardan Jonibek Sulton, Abdul-azizxonlar ham Hazrat Maxdumi A’zamni o‘zlarining pirlari deb bilganlar.

Temuriylar sulolasi inqirozidan so‘ng bir muncha sustlashib qolgan xojagon-naqshbandiya tariqatining faoliyati XVI asrning birinchi yarmida Maxdumi A’zam tomonidan davom ettirildi. Maxdumi A’zam davrida naqshbandiya tariqati yangi bosqichga ko‘tarildi. U zot o‘z asarlarida tariqatning nazariy asoslarini tizimlashtirdi va mustahkamladi.

Maxdumi A’zamning naqshbandiya tariqatiga qilgan eng muhim hissalaridan biri bu tariqat ta’limotini yaxlit tizimga solish, uning nazariy asoslarini mukammal shaklda bayon etish bo‘ldi.

⁸ Turaev B.O. Maxdumi A’zam. – Toshkent: IBXMN, 2020. – B. 14.

Undan oldingi pir-murshidlar, jumladan Xoja Bahouddin Naqshband va Xoja Ubaydulloh Ahror tariqatning amaliy tomonlariga ko‘proq e‘tibor bergan bo‘lsalar, Maxdumi A‘zam nazariy jihatlariga alohida ahamiyat berdi.

U o‘z asarlarida naqshbandiya tariqatining o‘n bir rashhasini nafaqat oddiy bayon qilmadi, balki har birining falsafiy-ma‘naviy asoslarini chuqur tahlil qildi. Maxdumi A‘zamning ta‘limotida shariat va tariqatning birligi prinsipi asosiy o‘rin tutadi. U doimiy ravishda shariatning asosiy ekanligini ta‘kidlab, tariqat yo‘li shariatga to‘liq mos kelishi kerakligini uqtirdi. Maxdumi A‘zam “shariyatsiz tariqat yo‘lsizlikdir” degan printsiptni o‘z ta‘limotining markazi qilib qo‘ydi.

Naqshbandiya tariqatida silsila tushunchasi muhim ahamiyatga ega. Silsila – bu ma‘naviy bilim va tajribaning ustoz-shogird zanjiri orqali Payg‘ambardan hozirgi davrgacha yetib kelishi demakdir. Maxdumi A‘zam bu silsilani to‘liq o‘rgandi va o‘z asarlarida batafsil bayon etdi. Uning “Risolai bayoni silsila” risolasi Naqshbandiya silsila sulukining ma‘naviyati, uning Hazrati payg‘ambar (s.a.v.) va Abu Bakr Siddiqdan boshlab, Maxdumi A‘zamning piru ustozlarigacha bo‘lgan vakillari bayoniga bag‘ishlangan. Risola shoyboniylardan Jonibek Sultonning iltimosiga ko‘ra yozilgan. Bu asar keyingi avlodlar uchun tariqat tarixini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib qoldi⁹.

Maxdumi A‘zamning o‘zi ham ushbu silsilaning muhim pirlaridan bo‘lib, u orqali naqshbandiya ta‘limoti keyingi asrlarga yetib keldi. Uning ko‘plab shogirdlari, jumladan nabirasi Xoja Abulbaqo, Hazrat Hofiz Doshquziy, Mavloni Muhammad Amin Xo‘jandi va boshqalar tariqatni keng yoydilar.

Maxdumi A‘zam davri naqshbandiya tariqatining ijtimoiy-siyosiy ta‘sirining eng yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan davr hisoblanadi. Temuriylar sulolasining inqirozidan keyin Markaziy Osiyoda siyosiy vaziyat beqaror edi. Shayboniylar hukmronligi davrida Maxdumi A‘zam tariqatning nufuzini saqlashda muhim rol o‘ynadi.

⁹ Komilxon Kattaev. Maxdumi A‘zam va Dahbed tarixi. – Samarqand: Sug‘diyona, 1994. – B. 21.

Uning Samarqandga ko‘chib kelishi va Dahbed majmuasini barpo etishi tariqatning yangi markazini yaratishga xizmat qildi. Dahbed xonaqohi Xoja Bahouddin Naqshband majmuasi, Xoja Ubaydulloh Ahrorning Samarqand va Toshkentdagi xonaqohlari qatorida eng muhim ma‘naviy markazlardan biriga aylandi. Maxdumi A‘zamning davlat arboblari – Jonibek Sulton, Ubaydulloxon, Bobur Mirzo va boshqalar bilan yaqin aloqalari tariqatning siyosiy nufuzini ta‘minladi. Ammo Maxdumi A‘zam hech qachon siyosiy hokimiyatga intilmadi, balki hukmdorlarga ma‘naviy-axloqiy yo‘l-yo‘riq berish bilan chegaralandi.

Maxdumi A‘zamning eng muhim xizmati ko‘plab shogirdlar tarbiyalash bo‘ldi. U o‘z davrida minglab muridlarga ma‘naviy ta‘lim berdi, ulardan ko‘plari keyinchalik mustaqil murshidlar darajasiga yetishdi. Bu shogirdlar Maxdumi A‘zamning ta‘limotini Markaziy Osiyoning turli hududlariga olib bordilar. XVI-XVII asrlarda naqshbandiya tariqati Hindiston, Turkiston, Qozonxonligi va hatto Usmonli imperiyasiga tarqaldi. Bu jarayonda Maxdumi A‘zam va uning shogirdlarining ta‘limoti muhim rol o‘ynadi.

Maxdumi A‘zam tariqatda ba‘zi islohot g‘oyalarini ham ilgari surdi. U tariqat ahlining jamiyatda faol bo‘lishini, faqat ibodatu zikr bilan kifoyalanmasdan, balki ilm-fan, kasb-kor bilan shug‘ullanishni targ‘ib qildi. Uning dehqonchilik bilan shug‘ullanishi, bog‘dorchilik va o‘simlikshunoslikka qiziqishi ana shu tamoyilning amaliy ko‘rinishi edi. Maxdumi A‘zam “Dil-ba yor-u, dast-ba kor” printsipini nafaqat nazariy jihatdan, balki amalda ham amalga oshirdi.

Shuningdek, Maxdumi A‘zam tariqat ahlining o‘qimishli va ma‘rifatli bo‘lishi kerakligini ta‘kidladi. U o‘z muridlariga nafaqat tasavvuf ilmlarini, balki boshqa ilmlarni ham – fiqh, tafsir, hadis, falsafa, astronomiya va boshqalarni o‘rganishni tavsiya qildi.

Maxdumi A‘zam 1542 yil 1 may dushanba kuni tush chog‘ida vafot etgan va vasiyatiga binoan o‘zi yaratgan bog‘ning o‘rtasidagi nok daraxti ostiga dafn

etilgan. Uning vafoti butun Markaziy Osiyo musulmonlarini qayg'uga soldi. Tariqat ahlidan tortib to davlat arboblariigacha, hamma bu yo'qotishni og'ir his qildi.

Bu yerda keyinchalik Maxdumi A'zam majmuasi barpo etilgan. Samarqand hokimi Yalangto'shbiy Bahodir 1610 yilda bu yerda xonaqoh va dahma qurdirgan. Majmua bir necha asrlar davomida Markaziy Osiyoning muhim ziyoratgohlaridan biriga aylandi. 1998 yilda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining dastlabki yillarida Maxdumi A'zam majmuasi qayta tiklanib, atrofi obodonlashtirildi. Maxdumi A'zam masjidi (xonaqoxi), maqbarasi, bog'i, tahoratxonasi va boshqa xo'jalik inshootlarini o'z ichiga olgan bu majmua bugungi kunda har taraflama obodonlashtirilmoqda.

Maxdumi A'zamning ma'naviy merosi XVI asrdan hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Uning asarlari asrlar davomida Markaziy Osiyo, Hindiston, Turkiston va boshqa hududlarda o'qilib kelinmoqda. Naqshbandiya tariqati Maxdumi A'zam davridan keyin yanada kengayib, XVI-XIX asrlarda islom dunyosining eng nufuzli tasavvuf yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayonda Maxdumi A'zamning nazariy asoslari va ta'limoti muhim rol o'ynadi.

Maxdumi A'zam tomonidan shakllantirilgan tariqat ta'limotining tizimli asoslari hozirgi davrda diniy-ma'naviy qadriyatlarni ilmiy jihatdan o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Uning qarashlari ma'naviy kamolot va jamiyatda foydali faoliyatning birlashishi mumkinligini anglatadi.

Shuningdek, Maxdumi A'zam faoliyatida shariat va tariqatning birligi, ma'naviy mas'uliyat, xalq dardi bilan yashash, ilmu ma'rifatni targ'ib qilish ustuvor o'rin egallaydi. Bu tamoyillar bugungi jamiyatda yetuk, mas'uliyatli va ma'rifatli shaxslarni shakllantirishda muhim ma'naviy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Maxdumi A'zam Dahbediy Kosoniy XVI asr Movarounnahr ma'naviy hayotining buyuk siymosi bo'lib, naqshbandiya tariqatining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan.

Maxdumi A'zam naqshbandiya tariqatining nazariy asoslarini yaxlit tizimga soldi. U o'n bir rashha, zikri xafiy, pir-murid munosabatlari, silsila va boshqa muhim masalalarni batafsil ishlab chiqdi. Shariat va tariqat birligi printsipini mustahkamlagan holda, tasavvufning sunniylikka to'liq mos yo'nalishini rivojlantirdi. Uning "shariyatsiz tariqat yo'lsizlikdir" degan prinsipi tariqat ahlining qat'iy yo'l-yo'rig'iga aylandi.

Maxdumi A'zamning o'ttizdan ortiq risolasi tasavvuf, falsafa, axloq, diniy-ijtimoiy masalalar va o'simlikshunoslikga oid muhim ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu asarlar uning qomusiy bilimdonligidan dalolat beradi.

Maxdumi A'zam shaxsiyati Sharq tasavvuf tafakkurida ma'naviyatni jamiyat hayoti bilan uzviy bog'lashning yorqin namunasi hisoblanadi. Uning qarashlarida tasavvuf ichki ruhiy kamolot bilan birga, ijtimoiy faollik, ma'rifat va xalq manfaatini himoya qilishga xizmat qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Maxdumi A'zamning ilmga, ma'naviyatga, halollik va poklikka intilishi, jamiyat uchun foydali bo'lish g'oyasi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Uning merosi nafaqat tarixiy, balki hozirgi zamon uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi va milliy ma'naviyatimizni boyitishda muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. [Mirziyoyev](#) Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari, 5-jild. – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2021. – 432 bet.
2. Komilxon Kattaev. Maxdumi A'zam va Dahbed tarixi. – Samarqand: Sug'diyona, 1994. – 80 bet.
3. Nuriddinov A. Maxdumi A'zam Kosoniy. – Toshkent: Fan, 2008. – 160 bet.
4. Turaev B.O., Artikov M.A., Nasrullaeva N . Z. Mahdumi Azam Kasani. – Tashkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2020. – 40 page.

5. Turaev B.O. Maxdumi A'zam. – Toshkent: IBXMN, 2020. – 48 bet.
6. Valixo'jaev B. Maxdumi A'zam Dahbediy // Valixo'jaev B., Zohidiy A. Maxdumi A'zam (maqolalar to'plami). – Toshkent: Navruz, 1993.
7. www.wikipedia.org
8. www.oliymahad.uz
9. www.xurshid.davron.uz